

ODAM O'G'IRLAGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNING RIVOJLANISH TARIXI VA UMUMIY TAVSIFI

Ortiqov Abror Nemat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Qo'riqlash va o'quv jarayonini ta'minlash batalyonini komandirining tarbiyaviy va
mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinnbosari
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8404889>

Kalit so'zlar: inson erkinligi, odam o'g'irlash, garov, ayriboshlash, qullik, tutqunlikda ushslash, g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, shaxs ozodligi, erkinlikka tajovuz.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquqlari chin ma'noda himoyalanib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida keng imkoniyatlar yaratilayotganligi hech birimizga sir emas, insoniyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichlariga nazar solsak hamisha har bir jamiyat o'z fuqorolarini himoya qilishni har doim kishilik jamiyati tarixida eng dolzarb muammolardan biri sifatida bilgan. Yurtboshimiz Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida mahalla tizimini o'zgartirish, "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilini joriy etish¹ orqali inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashni barcha huquq tartibot organlarining dolzarb vazifasi ekanligini belgilab berdi. Aynan shu masala davlat rahbari raisligida 2020-yil 12-fevral kuni o'tkazilgan mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida ham alohida e'tiborga olinganligi ahamiyatlidir². Inson ozodligi xalqaro hujjatlarda hamda demokratik - huquqiy davlatlarning milliy qonun hujjatlarda e'lon qilingan asosiy qadriyatlaridan hisoblanadi. Xususan, Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida insonlarning erkin bo'lib tug'ilishi (1-modda), har bir insonning Deklaratsiyasida e'lon qilingan barcha erkinlikka ega bo'lishi (2-modda), har bir insonning erkin bo'lish huquqi (3-modda) hech qachon erksiz holatda saqlanishi mumkin emasligi (4-modda) mustahkamlanganidir³.

"Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro paktning 9-moddasiga muvofiq, har bir inson ozodlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim o'zboshimchalik bilan hibsga olinishi yoki hibsda saqlanishi mumkin emas. Hech kim qonun bilan belgilanganidan boshqacha asos va tartibda ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas⁴.

Ushbu xalqaro prinsip O'zbekiston Respublikasining Asosiy qonunida yanada rivojlantirilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining – Konstitusiyasida belgilanishicha, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas (27-modda)⁵.

Davlat asosiy huquqlar orasida erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini e'lon qilar ekan, shu tariqa insonning erkin va shaxsiy daxlsizlik huquqi e'lon qilinibgina qolmasdan, muhofaza ham qiladigan shart-sharoitlar yaratish majburyatini oladi. M.Rajabova ta'biri bilan aytganda, "davlat va jamyatni erkinlashtirish demokratya rivojiga keng imkonyatlar yaratadi, amalgalashirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga ko'taradi. Boshqa sohalardagi kabi sud-huquq

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil.

² www.uzembassy.kz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining videoselektor yig'ilishi.

³ Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida 1948-yil 10-dekabr.

⁴ Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida 1966-yil 16-dekabr.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi www.constitution.uz.

tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida barchasi inson va uning manfaatlari uchun degan yukasak g'oya mujassam"⁶.

Mamalakatimizda fuqarolarning Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan erkinligi va shaxsiy daxlsizligi boshqa qonunlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bilan ham ta'minlanadi.

Xususan, Jinoyat kodeksi VI bobida shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan.

Insонning ozodligiga uni o'g'irlash yo'li bilan tajovuz qilish ildizlari uzoq o'tmishta borib taqaladi va uzundan-uzoq rivojlanish yo'li bosib o'tganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur jinoiy qilmishning vudjudga kelish va rivojlanish tarixiga nazar tashlash u bilan bog'liq bo'lgan jinoiy-huquqiy muommolarni yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Mutaxassislar odam o'g'irlash Qadimgi dunyoda keng tarqagan va bu hodisa Qadimgi Yunoniston va Rim rivoyatlarida aks ettirilganiga e'tiborini qaratadilar⁷. Xususan, Qadimgi Yunonuston afsonalariga ko'ra, odam o'g'irlash bilan hatto xudolar ham shug'ullanganlar. Masalan, Zevs va Aid tegishli ravishda Yevropa va Prozerpinani o'g'irlaganlar.

Qadim zamonlarda odam o'g'irlashdan ko'zlagan maqsad asosan o'g'irlangan odamlarni qul qilib sotish, ya'ni ularni buyum sifatida tasarruf etish bo'lgan. Ilk odam o'g'rilar qaroqchilar bo'lib, ular Ba'zan odam ovlash bilan maxsus shug'ulanganlar⁸. O'rta yer dengizining ko'p sonli qul bozorlarida minglab qullar sotilgan va ularning mehnatidan turli sohalarda keng foydalanilgan. R.A.Adelxanyan fikriga ko'ra, tovon puli ovlash maqsadida odam o'g'irlash o'sha zamonlarda deyarli uchramagan, o'g'rilangan odamlar odatda qul qilib sotilganlar⁹. Tarixchi olimlar Qadimgi Rimda kelin o'g'irlash odatida mavjud bo'lgani haqida ma'lumot beradilar¹⁰.

Ba'zan odam o'g'irlash keyinchalik asirlarga ayriboshlash maqsadida amalga oshirilgan. Masalan, qadimgi Rimda shu jumladan rimliklarning o'zini asirga olish (ya'ni amalda o'g'irlash) ham qullik manbai hisoblangan¹¹. Urushlar va ichki nifoqlar paytida asir olingan dushman askarlari ham qul qilib sotilgan yoki qullikda saqlangan. Masalan, Sisipion (millordan avvalgi 205 yildan 201 yilgacha) Afrikadan Sitsiliyaga yigirma minga yaqin harbiy asirlarni jo'natgan¹². Asir olingan dushman askarlari (shuningdek tinch axoli) odatda go'liblar o'rtasida taqsimlangan, ularning ortidan esa savdogarlar kelganlar va qullarni sotib olib, so'ngra ularni bozorda mo'may foyda evaziga pullaganlar¹³.

Amerika kashf qilingandan so'ng Afrika qit'asining qora tanli aholisini qullikka sotish uchun o'g'irlash ommaviy hodisaga aylangan. Habash qullarni o'g'irlash Yevropaning ko'pgina davlatlarida milliy siyosat darajasiga ko'tarilgan, XIX asr o'rtalarida habashlarni o'g'irlash va ularni qulga aylantirishni anglatgan "**blaskbirding**" (**qorayaloqlar**) so'zini ishlatish odat tusini olgan. Tobora keng tarqalayotgan odamlarni (aksaryat hollarda afrikalik habashlarni)

⁶ Rajabova M. Davlat qurulishi va sud huquq islohoti, istiqbollari – Toshkent:Adolat, 2005.-B.31.

⁷ Казамиров А.И. К Вопросу о системе преступлений против свободы личности // Теоретико-методологические прикладные аспекты борьбы с преступностью: история и современность. Мат. Междунар.науч.-практ.конф.17-18 марта 2005 г.В 4-х ч. Ч3/Под. Общ.ред. Ф.Б.Мухаметшина. – УФА:УЮИ МВД РФ 2005.- С.192-197.

⁸ Гетман И.Б. Развитие уголовной ответственности за торговлю людьми // Соотношение досудебного и судебного производства вопросы права процесса и криминалистики: материалы межвузовской научно практической конференции 16-февраля 2006 г.-Омск: Омский юрид.ин-т, 2006.-С. 217-226.

⁹ Адельханян Р.А. расследование похищения человека.-М.,2003-С.6.

¹⁰ Сергеенко М.Э. жизнь в древнем Риме-СПб.,2000-С. 189.

¹¹ Гиро Поль.Быт и нравы древних римлян.-Смоленск,2001-С.85.

¹² Сергеенко М.Э. Ко'rsatilgan asar-C.189-190.

¹³ Колобова К.М., Озерецкая Е.Л. Как жили древние греки.-Л.,1959.

qul qilib sotish maqsadida o'g'irlash hollariga ma'lum darajada chek qo'yish uchun 1841-yil Londonda Anglya, Frasiya, Rossiya, Avstriya va Prussiya o'rtasida habashlar bilan savdo qilishni taqiqlash to'g'risida shartnomalar imzolangan. Ammo ayrim kemalarning kapitanlari o'lim jazosi bilan tahdid qilinishiga qaramay afrikalik habashlarni "ovlash" da davom etganlar. Tirik odamni o'g'irlaganlik uchun og'ir jazo kishilik jamyati rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq nazarda tutligan. Masalan, Qadimgi Bobilda Hammurapi qonuniga muvofiq birovning voyaga yetmagan o'g'lini o'g'irlaganlik uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan. "Pokistonda ham tovon olish maqsadida odam o'g'irlash bilan bog'liq jinoyatlar uchun ham o'lim jazosi qo'llanilgan"¹⁴. Rim huquqiga binoan odam o'g'irlash, ya'ni erkin odamni erkisizlik holatiga o'tkazish og'ir jinoyat sifatida e'tirof etilgan. Keyinroq Yevropa qit'asining davlatlarida ham odam o'g'irlash uchun ancha o'g'ir jinoiy javobgarik nazarda tutilgan.

1789-yil 26-avgustda qabul qilingan Fransiyaning Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi inson ozodligiga tajovuz qiluvchi qilmishlariga doir jinoyat qonunchiligining rivojlanish jarayonida yangi bosqich yasadi. Mazkur Deklaratsiyada odamlar ozod va teng huquqli bo'lib tug'iladilar va shunday bo'lib qoladilar, deb e'lon qilindi. Napoleon tomonidan 1810-yilda qabul qilgan va 180 yildan ko'proq vaqt amal qilgan Fransiya Jinoyat kodeksida o'n olti yoshga to'limgan shaxslarni, shu jumladan ayol jinsiga mansub shaxslarni o'z nikohiga olish maqsadida o'g'irlash uchun og'ir (o'lim jazosiga qadar bo'lgan) jazo nazarda tutilgan.

1871 yilgi Germaniya Jinoyat tuzugining 18-bo'limida: a) ayolni o'z nikohiga olish va buzuqlikka majburlash uchun uning xohish-irodasiga zid ravishda o'g'irlash; b) voyaga yetmaganlarni o'g'irlash; v) o'zga shaxslarni qul qilib sotish, chet el harbiy yoki dengiz xizmatiga jo'natish maqsadida o'g'irlash uchun alovida-aloxida javobgarlik belgilangan Vengriya Jinoyat tuzugining "Ayrim shaxslar tomonidan shaxsiy erkinlikka tajovuz" deb nomlangan 18-bo'limi bolalarni o'g'irlash (Tuzukning 317, 318 va 319-paragraflari), 14 yoshga to'limgan qizlarni o'g'irlash (hatto ularning o'z roziligi bilan (Tuzukning 320-paragarafi) va ayollarni ularning xohish-irodasiga zid ravishda ular bilan buzuqlik qilish yoki nikohga kirish maqsadida o'g'irlash uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddalarni o'zichiga olgan. Mazkur qilmish uchun nazarda tutilgan jazo ayolni o'g'irlash uchun besh yildan bolalarni va o'n to'rt yoshga to'limgan qizlarni o'g'irlash uchun 10-15 yilgacha bo'lgan o'g'irlash jarayonida badanga shikast yetkazish yoxud nomusga tegish yoki buzuq harakatlarga jalb qilish jazoni og'irlashtiruvchi xolat xisoblanadi.

Odam o'g'irlash (xuddi shuningdek uni garov sifatida tutqunlikka olish) qadim zamonaldayoq iqtisodiy va siyosiy muammolarni xal qilish usullaridan biri bo'lgan. Ayol o'g'irlash esa uzoq asrlar mobaynida uylanish yo'li sifatida amal qilgan.

Islom huquqiga muvofiq urush harakatlari olib borilayotgan paytda dushman askarlarini asir olsh va ularni tutqunlikda saqlash qonuniy deb xisoblangan¹⁵

O'zbekiston hududida sho'ro davlatining mavjudlik davrida 1922, 1926 va 1959-yilgi Jinoyat kodekslarida g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, birovning bolasini o'g'irlash va ayolni u bilan nikohga kirish maqsadida o'g'irlash uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan balog'at yoshiga yetgan odamni o'g'irlash uchun javobgarlik esa mavjud bo'limgan. Bunday javobgarlik 1994-yilda qabul qilingan O'zR JKda nazarda tutildi. Mazkur norma Kodeksning

¹⁴ Пайзуллаев К.П., Салаев Н.С., Бобокелдиев Б.А. О'лим jazosi: o'tmishda, hozirda va kelajakda.-Toshkent: Turon-iqbol, 2005.-B.126.

¹⁵ Gadjiemnov B.A. Уголовно-правовые и криминалистические проблемы похищения человека: Дисс. ...канд.юрид.наук.-М.,2000.-C.8.

137-moddasida ifodalangan, qilmish esa o'g'ir jinoyatlar qatoriga kiradi – uni sodir etganlik uchun o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan.

Professor M.X.Rustambayev ushbu jinoiy qilmishni “boshqa shaxslar bilan erkin muomala qilish imkoniyatidan mahrum qilishda, agar bunga yo'l qo'yilsa ham faqatgina jinoyatchilar ruxsati bilan yoki ko'rsatmasiga asosan amalga oshirilishida namoyon bo'lishini” ta'kidlaydi.¹⁶ Yangi jinoyat tarkibini kiritish zaruriyati odam o'g'irlash hollarining ko'payishi bilan belgilanadi. Milliy qonunchilik tahlili va odam o'g'irlash statistikasi odam o'g'irlash uchun jinoyat-huquqiy taqiqni joriy etish davlat rivojlanishining mazkur jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi kuchaygan va aniq insonning shaxsiy xavfsizligiga ham, butun jamiyat xavfsizligiga ham tahdid paydo bo'lgan tarixiy davrlarida yuz bergenligini ko'rsatadi. Qonunchilik texnikasi rivojlanishi bilan odam o'g'irlashga doir normada turli xil o'zgarishlar yuz bergen, lekin insonning shaxsiy erkinligiga o'ta xavfli tajovuzlardan biri uchun jinoiy javobgarlik barcha davrlarda ham o'zgarishsiz qolgan.

“O'g'irlash” atamasi jinoyat huquqi fanida qadim zamonlardan beri ishlatiladi, lekin dastavval u o'g'irlikni, o'zganing mulkini har qanday yo'l bilan talon-taroj qilishni anglatgan. Sho'ro Jinoyat huquqida “o'g'irlash” atamasi “talon-taroj qilish” atamasi bilan almashtirilgan.

O'zbek tilining izoxli lug'atida “odam-fikrlash, so'zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, shu tufayli boshqa hamma maxluqotdan ustun turuvchi jonli, zod, kishi, inson”, o'g'irlamoq esa, “o'zganing narsasini xufiyona olmoq, olib ketmoq; qonunga xilof ravishda o'zlashtirmoq; kimsani boshqalarga bildirmasdan, zo'rlab olib qochmoq”¹⁷ sifatida ta'riflangan.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi “o'g'irlash” atamsi biroz boshqacha, lekin yaqinroq ma'no kasb etdi. Amaldagi JKda o'g'irlash atamasi 137-moddadagina emas, balki 135-modda (“Odam savdosi”) va 136-modda (“Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish”)ning dispozisiyasida ham ishlatilgan.

Yuridik lug'atda esa, “odam o'g'irlash – shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar turiga kiradi”¹⁸, deb ta'kidlanadi. Masalan, bir guruh mualliflar odam o'g'irlash tushunchasiga quydagicha ta'rif beradilar: “Odam o'g'rilash deb, shaxsni zo'rlik ishlatish yo'li bilan jismoniy tutqunlikka olishga aytildi. Bu jinoyatga bola o'g'irlash va almashtirib qo'yish, zo'rlik ishlatib nikoh tuzish yoki zino qilish maqsadida ayollarni o'g'irlash ham kiradi”¹⁹.

H.E.Martinenco fikriga ko'ra esa, odam o'g'irlash – bu “qasddan sodir etiladigan, insonni uning doimiy yashash joyidan olib ketish va uni yaqinlari va huquqni muxofaza qilish organlariga ma'lum bo'limgan joyda zo'rlik ishlatish yo'li bilan tutqunlikda saqlashga qaratilgan ijtimoiy xavfli qilmish”²⁰. Ushbu ta'rifdan ko'rindaniki, bu yerda gap ikki xil harakat haqida boradi: birinchi harakat insonni uning doimiy yashash joyidan olib ketishga, ikkinchi harakat esa –uni

¹⁶ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharh.-Toshkent: Adolat, 2016.-B.156.

¹⁷ O'zbek tilining Izohli lug'ati. 5 jildi. T.3./ A/Madvaliyev tahriri ostida.-Toshkent: “O'zbekiston milliy ensklopediyasi” davlat ilmiy nashryoti, 2008.-B.83. 193-194.

¹⁸ Yuridik enskilopediya/ prof. U.Tadjixanovning umumiyligi tahririda.- Toshkent: Sharq, 2001.-B.336.

¹⁹ Донцова А.В. Похищение человека: уголовно-правовой аспект.-Ростов-на-Дону, 2003.-С. 25-26., Панкратова Б.Б Уголовно-правовая охрана личной свободы. – Екатеринбург, 1999. –С. 28-30.; Ситникова Д.А. Уголовно-правовая и криминологическая характеристика похищения человека. – М., 2001. – С.19-21.; Снахова М.Р. Уголовно-правовая охрана личной свободы. – М., 2002. – С. 32-33.; Кириухина А.Б. Преступления против чести, достоинства и свободы личности. Монография. – М., 1999.- С. 51-52.

²⁰ Мартыненко Н.Э. Похищения человека понятие анализ состава и проблемы квалификации. Лексия.-М.:Академия управления МВД России, 1998.-С.20.

yaqinlari va huquqni muxofaza qilish organlariga ma'lum bo'lman joyda zo'rlik ishlatish yo'li bilan tutqunlikda saqlashga qaratiladi.

R.A.Adel'xanyan odam o'g'irlash deganda, insonni tutqunlikka olish, uni o'zi odatlangan mikromuxitdan ajratish, boshqa joyda ko'chirish, muayyan joyda uni jismoniy yoki ruxiy zo'rlik ishlatish yoxud aldov yo'li bilan uning xohish – irodasiga zid ravishda ushlab turishga qaratilgan, qasddan sodir etiladigan g'ayriqonuniy harakatlarni tushunadi²¹.

B.A.Gadjiemnov fikriga ko'ra, odam o'g'irlash qasddan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan harakatlar bo'lib, ular, odatda, shaxsni tutqunlikka olish, uni bir joydan boshqa joyga ko'chirish va shaxsni jabrlanuvchilarga ma'lum bo'lman joyda ushlab turish, ularga turli xil talablar qo'yish, xususan o'g'irlangan odam uchun uni ozod qilinishi o'z ichiga oladi²².

Ba'zan adabiyotlarda odam o'g'irlash faqat jabrlanuvchini uning xohish-irodasiga zid ravishda bir joydan boshqa joyga g'ayriqonuniy ko'chirish sifatida tushuniladi. I.Ya.Kozachenko fikriga ko'ra, odam o'g'irlash o'z moxiyatiga ko'ra jabrlanuvchini uning doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyidan boshqa joyga uning xohish-irodasiga zid ravishda ko'chirish bilan bog'liq bo'lgan har qanday harakatlarni o'zida ifodalaydi.²³ Tahlil qilinayotgan nuqtai nazar jinoyatchilar o'zları g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilgan shaxslarni o'z ixtiyorlariga olganlaridan keyin sodir etadigan harakatlarnigina qamrab oladi, ya'ni tushuncha o'z mazmuniga ko'ra to'liq emas; undan jabrlanuvchining bir joydan boshqa joyga ko'chirilishiga nima sabab bo'lgani aniq emas.

Odam o'g'irlashni to'rt harakatga ajratuvchi ta'riflar ham bor: "Odam o'g'irlash oldinma-ketin bajariladigan to'rt harakat- qo'lga tushurish, tutqunlikka olish, bir joydan boshqa joyga ko'chirish va tutqunlikda saqlashdan iborat".²⁴ Mazkur qarash tarafdarları "bir joydan boshqa joyga ko'chirish" dan "tutqunlikka olish" ni ham jaratadi. Vaholanki, tutqunlikka olmasdan bir joydan boshqa joyga ko'chirish mumkin emas, demak, bular mazmunan yagona harakatning tarkibini tashkil qiladi.

Yuqoridagilar asosida odam o'g'irlash tushunchasining mazmunini quydagicha tariflash mumkin: "odam o'g'irlash tirik insonni yashirinchha yoki ochiq-oydin tutqunlikka olish, uni doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyidan boshqa joyga ko'chirish va bu yer shaxsni uning xohish-irodasiga zid ravishda tutqunlikda saqlash bilan bog'liq bo'lgan, qasddan sodir etiladigan ijtimoiy xavfli harakatlardir".

Xozirgi Germaniyaning jinoyat qonunchiligidagi odam o'g'irlash (234-paragraf), voyaga yetmaganlarni o'g'irlash (235-paragraf), g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish (239-paragraf), tovlamachilik maqsadida odam o'g'irlash (239^a-paragraf) va shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish (239^b-paragraf) uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Ko'rsatilgan jinoyat tarkiblarining barchasi GFR JK Maxsus qismning "Shaxsiy erkinlikka qarshi jinoiy qilmishlar" deb nomlangan XVIII Bo'limida nazarda tutilgan. Tovlamachilik maqsadida odam o'g'irlashda, agar extiyotsizlik orqasida jabrlanuvchining o'limi yuz bergen bo'lsa, aybdor uchun kamida o'n yilga yoki umrbod ozodlikdan mahrum qili ko'zda tutilgan.²⁵

²¹ Адельханян Р.А. расследование похищения человека.-М.,2003-С.28.

²² Gadjiemnov B.A. Уголовно-правовые и криминалистические проблемы похищения человека: Дисс. ...канд.юрид.наук.-М.,2000.-С.13-14.

²³ Оганян Р.Э. Похищение человека: исторические и правовые проблемы.-М., 2001.-С.101.

²⁴ Уголовное право России.Т.2.Особенная часть/Под ред. А.Н.Игнатова и Ю.А.Красикова.-М.,1998.-С.111.

²⁵ Иващенко М.А. Криминалистические и криминально-правовые аспекты борьбы с торговлей женщинами и детьми:Автореф. Дисс. ...канд.юрид.наук.-Киев, 2000.-С.13-14.; Милвский А.И. Уголовно-правовая борьба с торговлей

Yuqorida aytib o'tilganidek, Shvetsariyada g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish va odam o'g'irlash uchun jinoiy javobgarlik bitta jinoyat-huquqiy normada belgilangan. Mazkur davlatjinoyat qonunchiligining o'ziga xos xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda ota yoki ona yoxud vasiylik vakolatiga ega bo'lgan shaxsdan voyaga yetmagan shaxsni tortib olish, shuningdek voyaga yetmagan shaxsni qaytarib berishdan bosh tortish uchun aloxida javobgarlik nazarda tutilgan. Ammo mazkur qilmish uchun aybdor faqat shikoyat bilan arz qilingan taqdirda javobgarlikka tortilishi mumkin⁸⁴, ya'ni Shvetsariya qonun chiqaruvchisi voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ushbu jinoyatning sodir etilishiga doir ishlarni xususiy tusdagi ishlar qatoriga kiritgan.

Shvetsiya Jinoyat kodeksida, "Erkinlik va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan bobda birma-bir shaxs bolani yoki biron-bir o'zga shaxsni unga tan jarohati yetkazish yoki uning sog'liga shkast yetkazish yoxud uni biron-bir ishga majburlash yoinki tovlamachilik maqsadida tutqunlikka olgan yoki ozodlikdan mahrum qilgan bo'lsa, u to'rt yildan o'n yilgacha yoki umrbod turma qamog'iga xukm qilinishi lozimligi aytib qo'yilgan (4-bob, 1-paragraf).²⁶ Estoniya jinoyat qonuniga muvofiq shaxsga qarshi jinoyatlar xaqidagi bobda bolani olish-sotish (JKning 123¹ -moddasi), bolani almashtirib qo'yish yoki o'g'irlash (JKning 124-moddasi), shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish (JKning 124¹-moddasi), psixiatriya shifoxonasiga g'ayriqonuniy ravishda joylashtirish (124²-modda) uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Mazkur davlatning qonun aloxida javobgarlik belgilamagan.²⁷

Yaponiya jinoyat qonunchiligidagi (tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan 1907 yilgi JKda) g'ayriqonuniy ravishda ushlab turish va ozodlikdan mahrum qilish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan (220-modda), bunda mazkur qilmishni jinoyatchining yoki uning xotini (eri)ning yaqin qarindoshi bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etish jinoyatningjavobgarlikni og'irlashtiruvchi xolati sifatida belgilangan.²⁸ Ushbu jinoyatni sodir etilganik uchun Yaponiya JKda yetti yilgacha muddatga majburiy jismoniy mehnat tariqasidagi jazo nazarda tutilgan.

Javobgarlikni o'g'irlashtirmaydigan xolatlarda odam o'g'irlash uchun nisbatan yengil jazo Bolgariyada (ikki yilgacha ozodlikdan mahrumqilish), Ukraina (uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish), Gruziya, Estoniya, Yaponiya (besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish), ancha og'ir jazo esa Ozarbayjon, Latviya, Tojikistonda (o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish) belgilangan. Javobgarlikni og'irlashtiruvchi xolatlarda odam o'g'irlash uchun Estoniyada besh yildan Tojikistonda yigirma yilgacha, Fransiyada o'ttiz yilgacha va umrbod ozodlikdan mahrum qilish, Xitoyda hatto o'lim jazosi nazarda tutilgan.

Ayrim davlatlar shu jumladan MDX davlatlari (Qozog'iston, Tojikiston, Rossiya Federasiyasi) ning jinoyat qonunchiligidagi odam o'g'irlash yoki shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish sodir etgan shaxslar uchun jinoiy javobgarlikdan, binobarin, boshqa jinoyat-huquqiyobiatlardan ham ozod qilish imkoniyati nazarda tutilgan. Buyerda gap chin ko'ngildan pushaymon bo'lish, ya'ni odam o'g'irlagan yoki uni garov sifatida tutqunlikka olgan shaxs ushlab turilgan odamni ixtiyoriy ravishda qo'yib yuborishi xaqida boradi.

несовершеннолетними: Автореф. Дисс. ...канд.юрид.наук.-М., 2000.-С.21-22.; Буряк М.Ю. торговля людьми и борьба с ней (Криминалистические и уголовно-правовые аспекты): Автореф. Дисс. ...канд.юрид.наук.-Владивосток., 2005.-С.23.

²⁶ Нураева Т.Н. личные (гражданские) права и свободы человека и их обеспечение уголовно-правовыми средствами (вопросы теории и практики). Монография.-Уфа, 2001.-С.27-28.

²⁷ Уголовный кодекс Эстонской Республики.-СПб.,2001.

²⁸ Уголовный кодекс Японии/ Под.ред. А.И.Коробеева.-СПб.,2002.

O'zbekiston, Ukraina, Estoniya va boshqa davlatlarning jinoyat qonunchiligidagi odam o'g'irlash uchun ham, g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish va shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish uchun ham aybdorni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkoniyati nazarda tutilmagan. Uzoq xorij mamlakatlarining qonun chiqaruvchilari odam o'g'irlagan va uni qo'yib yuborgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilishni emas, balki bu holda jazoni yumshatishni ma'qul ko'radi. Masalan, GFR JK 239^a-paragrafining toblamachilik maqsadida odam o'g'irlash uchun javobgarlik nazarda tutilgan to'rtinchchi qismiga muvofiq, agar jinoyatni bajaruvchi o'zi talab qilgan tovon pulidan voz kechib, jabrlanuvchini qo'yib yuborgan bo'lsa, sud jazosi yumshatish mumkun.²⁹

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlar, shu jumladan MDXga a'zo davlatlarning xozirgi jinoyat qonunchiligi Tahliliga yakun yasar ekanmiz, shuni qayd etishni istar edikki, insonning jimoniy erkinligiga tajovuzlar odatda jinoiy deb e'tirof etiladi va ularga doir normalar barcha xorijiy davlatlarning jinoyat qonunlarida belgilangan. Ammo milliy xususiyatlar va huquqiy an'analarga qarab odam o'g'irlash uchun javobgarlik aloxida yoki g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish doirasida, ba'zan shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish bilan belgilanadi.

Yaqin xorij mamlakatlarining jinoyat qonunlarini o'rganish ular O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligiga ancha o'xshash, degan xulosa kelish imoniyatini beradi. Bu xol mazkur mamlakatlar yaqin o'tmishda yagona huquqiy maydon doirasida mavjud bo'lgani bilan izoxlanadi. Shu bilan bir vaqtida tegishli huquqiy normalarni tuzish va ularni milliy jinoyat kodekslari tarkibiga kiritishga nisbatan musqatil yomdoshuvlar ham yo'q emas.

Masalan, odam o'g'irlash uchun ham, g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish uchun ham axolida jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi bilan bir qatorda Rossiya Federasiyasi, Ozarbayjon, Qozog'iston, Latviya Tojikiston kabi davlatlarning jinoyat qonunlarida nazarda tutilgan. Odam o'g'irlash va g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish uchun jinoiy javobgarlik Ukraina JK jinoyat qonunining bitta moddasida birlashtirilgan (146-modda), bunda mazkur normaning dispozisiyasida g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish va odam o'g'irlash o'rtasida "yoki" ajratuvchi bog'lovchisi ishlatilgan. Gruziya JKda (143-modda) faqat g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish uchun javobgarlik nazarda tutilgan, odam o'g'irlash uchun aloxida javobgarlik esa mavjud emas.

Jinoyat qonunlarining tarkibiy tuzilishida ko'rib chiqilayotgan normalarning o'rni ham bir xil emas. Masalan, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston, Rossiya va boshqa bir qancha davlatlarning jinoyat kodekslariga shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish jinoyatining tarkiblari O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligidagi kabi jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar xaqidagi boblarda, Gruziya JK va Ukraina JKda – inson huquqlari va erkinliklariga qarshi jinoyatlar xaqidagi boblarda, Latviya Respublikasi JKda esa – shaxs erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar xaqidagi XV bobda joylashtirilgan.

Odam o'g'irlash uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyatlartarkiblarining aksaryati shaxsga qarshi jinoyatlar xaqidagi bo'limalar va boblardan o'rinni olgan Belarus Respublikasi JKda odam o'g'irlash jinoyatining tarkibi shaxsiy erkinlik, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlarga bag'ishlangan 22-bobda, odam o'ldirish nomusga tegish va shu kabilardan aloxida joylashtirilgan. Ozarbayjon, Tojikiston, Ukraina jinoyat qonunlari ham shunga o'xshash tarkibiy tuzilishga ega.

²⁹ Уголовный кодекс Федеративной Республики Германии/ Пер.и предисл. А.В.Сребренниковой.-М.,2000.

Odam o'g'irlash jinoyatining ijtimoiy xavflilik darajasi, tegishli ravishda uni sodir etganlik uchun jazo chorasi ham turli davlatlarning jinoyat qonunlarida bir-biridan chezilari darajada farq qiladi. Rossiya Federasiyasining Jinoyat kodeksida u 126-moddaning birinchi qismiga muvofiq sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilishdan iborat bo'lsa, Ukraina JKga muvofiq – uch yilgacha Gruziya va Estoniya jinoyat qonunlariga muvofiq – besh yilgacha, Ozarbayjon, Latviya va Tojikiston jinoyat kodekslariga muvofiq esa – o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilishdan iboratdir. Javobgarlikni og'irlashtiruvchi xolatlarda odam o'g'irlash uchun jazo Tojikiston JKga muvofiq yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilishni tashkil etadi. Bunda ayrim davlatlar, shu jumladan MDX davlatlari (Qozog'iston, Tojikiston Rossiya Federasiyasi)ning jinoyat qonunchiligidagi odam o'g'irlash yoki shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish sodir etgan shaxslar uchun jinoiy javobgarlikdan, binobarin, boshqa jinoyat-huquqiy oqibatlardan ham ozod qilish imkoniyati nazarda tutilgan. Bu yerda gap chin ko'ngildan pushaymon bo'lish, ya'ni odam o'g'irlagan yoki uni garov sifatida tutqunlikka olgan shaxs ushlab turilgan odamni ixtiyoriy ravishda qo'yib yuborish xaqida boradi.

Ayrim mamlakatlarning jinoyat qonunlarini O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidan ajratish imkoniyatini beruvchi muhim xususiyatlardan biri ularda odam o'g'irlash tushunchasiga ta'rif berilganidir (Latviya, Belarus).

Xulosa qilib aytganda: bugun mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar yangi O'zbekistonni yanda rivojlantirishning tub asosini tashkil qiladi, odamni o'g'irlash uchun javobgarlik 1994-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutildi, Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligining muhim xususiyati shu bilan belgilanadi, ularning qonun chiqaruvchilari odam o'g'irlagan va uni qo'yib yuborgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilishni emas, balki bu holda jazoni yumshatishni ma'qul ko'radi. Bizningcha mazkur yondashuv mutlaqo o'rinnlidir, chunki u jazoning muqarrarligi prinsipini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Ortiqov A.N. Odam o'g'irlaganlik uchun jinoiy javobgarlikning rivojlanish tarixi va umumiyyat tavsifi

Ushbu maqolada odam o'g'irlash jinoyatlarining rivojlanish tarixi, respublikamizda inson huquqlarini ta'minlash jumladan shaxs erkinligi va uni o'g'irlashning jinoiy-huquqiy asoslarini mustahkamlash, inson erkinligi va ozodligini cheklash yuzasidan mutaxassislarining keng qamrovli fikrlari, xorijiy mamlakatlarning odam o'g'irlash va uning kvalifikatsiya qilinishiga oid qonunchilik asoslari atroficha yoritib berilgan.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil;
2. www.uzembassy.kz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining videoselektor yig'ilishi;
3. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida 1948-yil 10-dekabr;
4. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida 1966-yil 16-dekabr;
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, www.constitution.uz;
6. Rajabova M. Davlat qurulishi va sud huquq islohoti, istiqbollari – Toshkent:Adolat, 2005.-B.31.
7. Казамиров А.И. К Вопросу о системе преступлений против свободы личности // Теоритико-методологические прикладные аспекты борьбы с преступностью: история

и современность. Мат. Междунар.науч.-практ.конф.17-18 марта 2005 г.В 4-х ч. Ч3/Под. Общ.ред. Ф.Б.Мухаметшина. – УФА:УЮИ МВД РФ 2005.- С.192-197.

8. Гетман И.Б. Развитие уголовной ответственности за торговлю людьми // Соотношение досудебного и судебного производства вопросы права процесса и криминалистики: материалы межвузовской научно практической конференции 16- февраля 2006 г.-Омск: Омский юрид.ин-т, 2006.-С. 217-226.
9. Адельханян Р.А. расследование похищения человека.-М.,2003-С.6.
10. Сергеенко М.Э. жизнь в древнем Риме-СПб.,2000-С. 189.
11. Гиро Поль.Быт и нравы древних римлян.-Смоленск,2001-С.85.
12. Сергеенко М.Э. Ko'rsatilgan asar-С.189-190.
13. Колобова К.М., Озерецкая Е.Л. Как жили древние греки.-Л.,1959.
14. Пайзуллаев К.П., Салаев Н.С., Бобокелдиев Б.А. O'lim jazosi: o'tmishda, hozirda va kelajakda.-Toshkent: Turon-iqbol, 2005.-В.126.
15. Gadjiemenov B.A. Уголовно-правовые и криминалистические проблемы похищения человека: Дисс. ...канд.юрид.наук.-М.,2000.-С.8.
16. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharh.-Toshkent: Adolat, 2016.-В.156.
17. O'zbek tilining Izohli lug'ati. 5 jildi. Т.3./ A/Madvaliyev tahriri ostida.-Toshkent: "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" davlat ilmiy nashryoti, 2008.-В.83. 193-194.
18. Yuridik enskilopediya/ prof. U.Tadjixanovning umumiy tahririda.- Toshkent: Sharq, 2001.-В.336.
19. Донцова А.В. Похищение человека: уголовно-правовой аспект.-Ростов-на-Дону, 2003.-С. 25-26., Панкратова Б.Б Уголовно-правовая охрана личной свободы. – Екатеринбург, 1999. –С. 28-30.; Ситникова Д.А. Уголовно-правовая и криминологическая характеристика похищения человека. – М., 2001. – С.19-21.; Снахова М.Р. Уголовно-правовая охрана личной свободы. – М., 2002. – С. 32-33.; Кирюхина А.Б. Преступления против чести, достоинства и свободы личности. Монография. – М., 1999.- С. 51-52.
20. Мартыненко Н.Э. Похищения человека понятие анализ состава и проблемы квалификации. Лексия.-М.:Академия управления МВД России, 1998.-С.20.
21. Адельханян Р.А. расследование похищения человека.-М.,2003-С.28.
22. Gadjiemenov B.A. Уголовно-правовые и криминалистические проблемы похищения человека: Дисс. ...канд.юрид.наук.-М.,2000.-С.13-14.
23. Оганян Р.Э. Похищение человека: исторические и правовые проблемы.-М., 2001.- С.101.
24. Уголовное право России.Т.2.Особенная часть/Под ред. А.Н.Игнатова и Ю.А.Красикова.-М.,1998.-С.111.
25. Иващенко М.А. Криминалистические и криминально-правовые аспекты борьбы с торговлей женщинами и детьми:Автореф. Дисс. ...канд.юрид.наук.-Киев, 2000.-С.13-14.; Милвский А.И. Уголовно-правовая борьба с торговлей несовершеннолетними: Автореф. Дисс. ...канд.юрид.наук.-М., 2000.-С.21-22.; Буряк М.Ю. торговля людьми и борьба с ней (Криминалистические и уголовно-правовые аспекты): Автореф. Дисс. ...канд.юрид.наук.-Владивосток., 2005.-С.23.

26. Нуркаева Т.Н. личные (гражданские) права и свободы человека и их обеспечение уголовно-правовыми средствами (вопросы теории и практики). Монография.-Уфа, 2001.-С.27-28.
27. Уголовный кодекс Эстонской Республики.-СПб.,2001.
28. Уголовный кодекс Японии/ Под.ред. А.И.Коробеева.-СПб.,2002.
29. Уголовный кодекс Федеративной Республики Германии/ Пер.и предисл. А.В.Сребренниковой.-М.,2000.

